

## TA'LIM JARAYONIDAGI TA'LIM SHAKILLARI, METOD VA VOSITALARI

Zamonova Manzura Vali qizi

*JDPU Sirtqi bo'lim, Tabiiy va aniq fanlarda masofaviy ta'lim kafedrasi o'qituvchisi*

*Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan borat.*

**Sh. M. Mirziyoyev.**

**Annotatsiya:** Biologik ta'limga tashkil etishda innovatsion yondoshuvni o'rghanishga bag'ishlangan. Pedagogik texnologiyalar ta'limga jarayoniga texnologik yondoshuv turlari va bosqichlari, Ta'limga jarayonidagi ta'limga shakillari, usul va vositalari, Ta'limga jarayonida seminar amaliy, ekskursiya yo'nalishi va tuzilishi, Biologik ta'limga innovatsion yondoshuv orqali dars jarayonida qo'llashga doir zoologiya faniga oid bir soatlik dars ishlanmasi tayyorlash haqida keng ma'lumotlar keltirilgan..

**Tayanch so'zlar:** dars ishlanma, Pedagogik texnologiyalar, innovatsion yondoshuv.

**Аннотация:** В данной статье 20 января состоялось расширенное совещание Президента Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёева по вопросам развития системы иностранных языков и профессионального обучения в школах. Данная магистерская работа посвящена изучению инновационного подхода к организации биологического образования. Педагогические технологии в виды и этапы технологического подхода к образовательному процессу, формы обучения в образовательном процессе, методы и средства, направление и структура практического семинара в образовательном процессе, направление и структура экскурсии, биологическое образование в ходе урока через инновационный подход. Имеется обширная информация о том, как подготовить часовой план урока по зоологии

**Ключевые слова:** Разработка уроков, Педагогические технологии, инновационный подход.

**Abstract:** In this article, the extended meeting of the President of the Republic of Uzbekistan Sh.M. Mirziyoyev on the issues of development of the system of foreign languages and vocational training in schools was held on January 20. Pedagogical technologies types and stages of the technological approach to the educational process, forms of education in the educational process, methods and tools, the direction and structure of a practical seminar in the educational process, the direction and structure of an excursion, biological education in the course of the lesson through an innovative approach. There is extensive information on how to prepare a one-hour lesson plan on zoology.

**Key words:** lesson development, Pedagogical technologies, innovative approach.

Zamonaviy ta'limga eng muhim unsurlari qadimdan shakllanib kelgan. Ta'limga maqsadi, mazmuni, shakli, uslub va vositalari ta'limga jarayonini mazmunini tahlil qilish uchun qo'llaniladigan an'anaviy kategoriyalar bo'lib hisoblanadi. Aynan shu kategoriyalar ma'lum

predmet, mutaxassislik yoki ixtisoslik bo‘yicha o‘quv – tarbiyaviy jarayonni tashkil qiluvchi pedagogik faoliyatning predmeti sifatida yuzaga chiqib, pedagogik faoliyatning qonuniyat va mezonlarini tizimlashtiruvchi omil vazifasini bajaradi.

Uzoq yillar mobaynida qayd etilgan pedagogik maqsadlarni ro‘yobga chiqarish uchun yetarli bo‘lib kelgan.Muayyan davrlarda bir guruh pedogologlar barcha davrlarda amalga oshirilgan pedagogik faoliyatning darajasi qoniqarsiz deya baholaganlar. Ular, xususan, pedagogik tushunchalarga berilgan ta’rif va tavsiflarning noaniqligi, ta’lim jarayonlarini tavsiflovchi ba’zi kategoriyalarning yetitshmasligi, ta’lim maqsadi, mazmuni, shakli, uslubi va o‘qitish vositalari o‘rtasida o‘zaro uzviylikni mavjud emasligi kabi holatlarning doimiy ravishda tanqid qilib kelganlar. Ular tomonidan “metodika” tushunchasi yuqori darajadagi sub’ektivlikka “o‘tganligi” bilan belgilanadi.

Pedagogik jarayonning mohiyati o‘qituvchi hamda o‘quvchining birgalikdagi faoliyati mazmunida aks etadi, mazkur jarayonda pedagog o‘quvchi-larda yuzaga kelgan qiyinchiliklarni engishga yordam beradi. Pedagogik yordam-ning asosiy mohiyati pedagogik jarayonning tavsifi, uning ma’lum maqsadga yo‘naltirilganligi, shuningdek, shaxsni shakillantirish va tarbiyalash borasida hal etiladigan vazifalar bilan ifodalanadi. Pedagogik axborotlarni e’lon qilish, ko‘rsatish, eslatish, tushuncha yoki maslahat berish, yo‘naltirish, haqqoniylash-tirish, kengashish, bartaraf etish, hamandardlik qilish, ilhomlashtirish, qiziqtirish va hurmatini izhor qilish, talabchanlikni qo‘llab-quvvatlash kabi ko‘rinishlarda yuzaga keladi.

Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari - majmuaviy integral (butun, uzviy bog‘liq) tizim bo‘lib, unda ta’lim maqsadlari asosida belgilangan ko‘nikma va malakalar o‘quvchilar tomonidan nazariy bilimlarni o‘zlashtirish, ularda muayyan ma’naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat elementlarining ma’lum tartibga solingan to‘plami sifatida aks etadi.

Bu o‘rinda ta’lim maqsadlarining belgilanishi (kimga va nima uchun), mazmunni tanlash va ishlab chiqish (nima), ta’lim jarayonlarini tashkil qilish (qanday), ta’lim metod va vositalarining belgilanishi (nimalar yordamida), shuningdek, o‘qituvchilar malaka darajasi (kim), erishilgan natijalarni baholash metodi (qanday yo‘l bilan) inobatga olinishi lozim. Keltirilgan mezonnarning majmuaviy tarzda qo‘llanilishi o‘quv jarayoning mohiyati va texnologiyasini belgilab beradi.

Ta’lim texnologiyasini loyihalash jarayonida pedagogika vazifasining qo‘yilishi va uni hal etishga aloxida e’tibor berilishi zarur (5- shakl)

### O‘qitish texnologiyisini loyihalash

Pedagogik vazifani qo‘yilishi

Didaktik jarayonni ishlab chiqish

### 5 - shakl. O‘qitish texnologiyisini loyihalash

Pedagog vazifasini belgilashda quyidagilarni inobatga olish maqsadaga muvofiq: ta’lim maqsadlarini tahlil etish asosida o‘quv perdmesti mazmunini aniqlash:

o‘quv predmeti axborot tuzilmasini ishlab chiqish va uni o‘quv omillarini tizimli ko‘rinishda ifodalash;

o‘quvchilarning o‘quv omillarini o‘zlashtirish darajalarini avvaldan bilish;

o‘quvchining daslabki bilim darajasini aniqlash (bu ko‘rsatkich o‘quv predmetining mazmuniga asoslanadigan o‘quv materialni o‘zlashtirganlik darajasidan kelib chiqadi);

moddiy baza hamda ta’limning tashkiliy shakllariga qo‘yiladigan chegaralarni belgilash.

Pedagogik vazifalarning hal etilishini ta’minlovchi o‘qitish texnologiyasini loyihalashga qaratilgan o‘qituvchi faoliyatining mazmuni, metodlari, shakl va vositalar asosida shakllantiriladi. [11, 6-b]

Pedagogik faoliyat mazmunini belgilovchi asosiy omillar:

boshqarish turi;

axborot almashish jarayonining turi;

axborotni uzatish vositalarining tiplari va bilish faoliyatini boshqarish.

O‘qitish jarayoniga faoliyat nuqtai nazaridan yondashish konsepsiyasiga asoslanib, uni tashkil etish quyidagi mantiqiy ketma-ketlikka asoslanishi mumkin; dastlab o‘quv materiali mazmunining tavsifi, uni o‘rganishdan ko‘zlangan maqsad (o‘zlashtirish darajalari), shunigdek, pedagogik vazifaning qo‘yilish shartlari tahlil etiladi. So‘ngra, o‘qitishning mos ravishdagi metodlari hamda o‘quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish tizimi ishlab chiqiladi. Shu asosda o‘qitish vositalari-ning ro‘yxati tuziladi. Ushbu usul bilan hosil qilingan metod va ta’lim vositalari-ning yaxlit tizimi tashkiliy shakllar bilan uyg‘unlashtiriladi ya’ni, muayyan texnologiya ishlab chiqiladi.

Umumlashgan pedagogik texnologiyalar ma’lum psixo-pedagogik asoslar-da ko‘rilgan “sintetik nazariya” sifatida qaraladi.

Tadbiqiy pedagogik texnologiyalar oldindan rejalahtirilgan natijalarga erishishga yo‘naltirilgan kasbiy tayyorgarlik jarayonini loyihalash muammosini metodik jihatdan hal etishga yo‘naltiriladi.

Bugungi kunda pedagogik texnologiyalar asosini shaxsiy faoliyatli yonda-shuv, tanqidiy ijodiy fikirlash, muammolarni hal etish, qaror qabul qilish va jamoada hamkorlikni qaror toptirishga oid pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish ehtiyoji yuzaga kelmoqda.

Ayni vaqtda ta’lim muassasalari amaliyotida quyidagi pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanilmoqda:

**Pedagogik texnologiya turlari**

Pedagogik texnologiya turi	Maqsadi	Mohiyati	Mexanizmi
Muammoli o'qitish	O'quvchilarning bilish faoliyatini hamda ijodiy mustaqilligini oshirish	O'quvchilarga ulariga bilimlami o'zlashtirish borasida gi faoliytkni yuzaga keltirishga xizmat qiluvchi masalalarni maqsadga muofiq ketma - ket berib boorish	Tadqiqotchilik metodlari, bilish faoliyatiga yo'naltinilgan masalalarni yechish
Mujassamlash-tinlgan ta'lim	Shaxsning his qilish xususiyatlariaga maksimal darajada yaqinlashtirilgan ta'lim jarayoni tuzilmasini yaratish	Mashg'ulotlami bilmlarga birkintish hisobiga fanlarni chuqur o'zlashtirishga enishish	O'quvchilarni ish qobiliyati dinamikasini hisobga oluvchi ta'lim metodlari
Modul ta'limi	Ta'lim mazmurnini shaxsning individual ehtiyojlari va uning bazaviy tavyorgarligi darajasida muofiqlashtirish	O'quvchilarning individual o'quv dasturi asosida mustaqil ishlashlari	Muammoli yondoshuvni amalga oshirishning individual maromi
Rivojlantiruvchi ta'lim	Shaxs va uning qobiliyatini rivojlantirish	O'quv jarayonini shaxsning ichki imkoniyatlari va ulami ro'yobga chiqarishga yo'naltinish	O'quvchilar faoliyatini turli sohalarga yo'naltinish
Differensiallashgan ta'lim	O'quvchilarning layoqati, qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash uchun	Turli o'zlashtirish darajalari bo'yicha majburiy me'yori (standart) dan kam	Individual ta'lim metodlari

	<u>qulay shart-shroitlarni yaratish</u>	<u>bo'limgan hajmdagi dastur materialini o'zlashtirish</u>	
<u>Faol o'qitish (majmuaviy ta'lim)</u>	<u>O'quvchilarni faoliyatini yuzaga keltirish</u>	<u>Bo'lajak kasbiy faoliyatning predmetli va ijtimoiy mazmunini modellaشتirish</u>	<u>Faol o'qitish metodlari</u>
<u>O'yin texnologiyalari</u>	<u>Bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishning shaxsiy faoliyat tavsifida bo'lishini ta'minlash</u>	<u>O'quv axborotlarini qayta ishslash va o'zlashtirishga yo'naltirilgan mustaqil bilish faoliyati</u>	<u>O'quvchilarni ijodiy faoliyatga jalb etishning o'yin metodlari</u>

#### **6 – shakl. Pedagogik texnologiya turlari**

Shunday qilib, avvaldan loyihalashtirilgan ta'lim-tarbiya jarayonining pedagogik texnologiyasi o‘zida metodlar tizimi, ta’lim metodik usullari, maqsad, vositalari, o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikda faoliyat ko‘rsatish imkoniyat-lari hamda yakuniy natijalarga erishish borasidagi majmuani mujassamlashtiradi

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent: O‘zbekiston, 2016. B.8
2. Karimov I.A. O‘zbekistonning 16 yillik taraqqiyot yo’li . – Toshkent: 2007. -24 6.
3. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. – Toshkent: O‘zbekiston, 1999. – 48 b.
4. Karimov I.A. O‘zbekistan – kelajagi buyuk davlat. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992. – 54 b.
5. Karimov I.A. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. Hujjatlar to’plami. – Toshkent: Shark, 1997.– 5-10 b.
6. Azizzodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. –Tashkent: Fan va texnologiyalar, 2006. -186 b.
7. 11. Jo’raev R., Samatov B, Qarshiboev Q. Zamonaviy informatsion va pedagogik texnologiyalar asosida tabiiy fanlarni o’qitish.//Xalq ta’limi. – 2002. - №3, - 6-9 b.
- 8.
- 9.